# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024




№ 9

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Google Scholar

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 274 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya,** TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi,** Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TDIUprofessori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d., TSUE professori
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musayeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Cham Tat Huei,** ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d.(,PhD) TAQU katta o'qituvchisi
**Djudi Smetana,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Krissi Lyuis,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Ali Konak (Али Кўнак),** i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
**Glazova Marina Viktorovna,** i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung,** honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten,** member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich,** DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich,** DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna,** PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich,** CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich,** DSc, Prof., of the People’s Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja ugli,** DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod,** Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich,** DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva,** professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei,** PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna,** CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**G'afurov Doniyor Orifovich,** p.f.f.d., (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar ........ 21
**Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich**

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari ........ 24
**Abdullayev Farxod Ozodovich**

Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari ........ 35
**Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna**

Bevosita soliqlar ma’muriyatchiligi ........ 41
**Idirisov Alisher Otajonovich**

Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari ........ 46
**Abdiev Jaxongir Ibragimovich**

Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili ........ 53
**Djumaniyazov Marks Quranbaevich**

Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi ........ 60
**Shaislamova Nargiza Kabilovna**

Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari ........ 67
**Asrorov Azizbek Isomiddin o‘g‘li**

The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy ........ 74
**Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna**

O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi ........ 79
**Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich**

Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnolgiyalardan foydalanishning nazariy asoslari ........ 87
**Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich**

Международный опыт стимулирования инновационной деятельности ........ 93
**Абдиуалиева Гулзада Азатовна**

How does foreign direct investment promote economic growth? ........ 98
**O‘tkirova Bonu Azamat kizi**

Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi ........ 102
**Umarov Abduvaxob Tursunovich**

Technological Innovations of Electronic Payment Systems ........ 107
**Mirkomil Boboyorov Murodullaevich**

Ta’lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o‘rni va ahamiyati ........ 115
**Imomov Xolmurod Norqul o‘g‘li**

O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili ........ 119
**Maksudov Abdumalik Xodievich**

Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish ........ 124
**G‘ofurov Temur Baxrom o‘g‘li**

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi ........ 129
**Turg‘unov Muxriddin Mo‘ydinjon o‘g‘li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari ... 133
**Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li**

Davlat budjetining soliqli daromadlari tahlili ... 139
**Abduraimova Nigora Radjabovna**

Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon ... 143
**To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich**

O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida) ... 151
**Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich**

Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области ... 156
**Гаппарова Майрамхон Зафар кизи**

Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari ... 161
**Nosir Maxmudov, Lola Azimova**

Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari ... 167
**Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan**

Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish ... 173
**Sherxon Tuychiyev**

Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari ... 177
**Ergashev Jahongir Baxodirovich**

Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari ... 180
**Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich**

Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari ... 184
**Azizova Zilola Lochin qizi**

Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari ... 191
**Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich**

Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni ... 200
**Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi**

Анализ прибыли агропромышленности ... 204
**Гафурова Азизахон Фатиховна**

Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach ... 209
**Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloyevna**

An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries ... 213
**Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli**

Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli ... 216
**Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich**

Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса ... 221
**Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич**

Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi ... 225
**Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich**

Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari ... 230
**Mirzayev Kobil Nosirjonovich**

Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari ... 236
**Ismailov Dilshod Anvarjonovich**

Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari ... 242
**Zarina Ashurova**

Social media marketing strategies for small businesses........ 247
**Mannonov Shahzod Istam ugli**

Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo‘llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o‘zaro ta’siri........ 250
**Rajapov Shuxrat Zaripbaevich**

Neft-gaz, yoqilg‘i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to‘lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari........ 258
**Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich**

Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении........ 266
**Муминов Фазлиддин Хусниддин угли**

# DAVLAT BUDJETI XARAJATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

ORCID: 0009-0000-3596-5820

**Sherxon Tuychiyev**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada budjet xarajatlarining mohiyati, budjet xarajatlarini moliyalashtirish prinsiplari, hozirgi vaziyat tahlili, budjet xarajatlarini amalga oshirishga ta’sir etuvchi omillar tahlili keltirilgan. Shuningdek, budjet xarajatlaridan foydalanishni oqilona amalga oshirish bo‘yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: budjet, xarajat, budjet tizimi, prinsip, ijtimoiy soha.

Abstract: This article presents the essence of budget expenditures, principles of financing budget expenditures, analysis of the current situation and factors affecting budget expenditures. It also provides conclusions and recommendations on the rational use of budget expenditures.

Key words: budget, expenditure, budget system, principle, social sphere.

Аннотация: В данной статье представлен сущность бюджетных расходов, принципов финансирования бюджетных расходов, анализ текущей ситуации и факторы, влияющие на бюджетные расходы. Также приводятся выводы и рекомендации по рациональному использованию бюджетных расходов.

Ключевые слова: бюджет, расход, бюджетная система, принцип, социальная сфера.

## KIRISH

Bugungi kunda Respublikamiz budjet tizimida barcha huquqiy asoslar ta’minlanganiga qaramay, budjet xarajatlarini maqsadli dasturlar asosida shakllantirish, ushbu dasturlar samaradorligini baholovchi indikatorlar va mezonlar ishlab chiqish, budjetni rejalashtirish samaradorligini baholovchi ko‘rsatkich va mezonlarni tatbiq etish, hamda budjetdan ajratilgan mablag‘larning yakuniy natijadorligini ta’minlash hal qilinmagan muammolardan biri hisoblanadi.

Budjet mamlakatning asosiy moliyaviy hujjati sifatida budjet xarajatlaridan oqilona foydalanish masalasi har doim dolzarb bo‘lib keladi. Mamlakatimiz Prezidenti bu borada shunday ta’kidlaydi: “Budjet mablag‘larining maqsadli va oqilona sarflanishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish zarur”[1].

O‘zbekistonda jahon iqtisodiyotida mavjud tendensiyalarni va mamlakatimizning kelajakdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlantirish strategiyasini inobatga olgan holda, birinchi darajali e’tibor iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Ushbu maqsadning dolzarbligi va ahamiyati shundan iboratki, o‘rta muddatli istiqbolda iqtisodiyotimizni rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga olib chiqishni bosh strategik vazifa sifatida belgilab olganmiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Budjet xarajatlari samaradorligi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy baholashlarni aks ettiruvchi keng tushunchadir. Shuning uchun xarajat va foyda kabi tushunchalarni miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan samaradorlikni o‘lchash har doim ham mumkin emas[2].

Prof. N.H. Haydarov budjet mablag'laridan aslo kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlarni, avvalo, ijtimoiy sohani va yangi budjet tarkibiy yo'nalishlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash uchun foydalanish zarurligini ta'kidlaydi[3].

Ukrainalik olim Yu.D. Radionov budjet xarajatlaridan samarali foydalanishni tartibga solish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tezlashtirishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning sifatiga ta'sir qilishi, soliq-budjet siyosati samaradorligini oshirishi hamda mamlakat moliya tizimining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishini aytib o'tadi[4].

X. Nguyen davlat budjeti xarajatlarini iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida ta'kidlab, budjet xarajatlari tarkibidagi har bir komponent iqtisodiy mohiyatiga va maqsadiga qarab turlicha ta'sir ko'rsatishini qayd etadi[5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil va ma'lumotlarni guruhlash usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar ilmiy tadqiqotda o'zaro bog'liq ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ilmiy mushohada tadqiqot obyekti yuzasidan chuqur o'rganish va tushunishni talab qiladi, bu esa muammolarni kompleks yondashuv orqali hal qilishni ta'minlaydi. Abstrakt-mantiqiy fikrlash esa tadqiqot jarayonida nazariy asoslar va dalillarga asoslanib, mavhum tushunchalarni aniqroq ifodalashga yordam beradi. Qiyosiy tahlil orqali esa muqobil yechimlar, usullar yoki jarayonlar bir-biri bilan solishtirilib, samaradorlik va maqsadga muvofiqlik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ma'lumotlarni guruhlash usuli esa ko'p sonli faktlarni tizimlashtirish va ularni tartib bilan tasniflashga yordam beradi, bu esa tadqiqot natijalarini aniqroq va tushunarli shaklda taqdim etish imkonini yaratadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Budjet xarajatlarini moliyalashtirish aniq prinsiplar va budjet mablag'larini taqdim etish shakllariga asoslanishi O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi va bir qator adabiyotlarda ta'kidlanadi. Ushbu prinsiplar davlat budjeti mablag'laridan samarali va oqilona foydalanishning muhim asoslarini belgilaydi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Minimum xarajat orqali maksimum natijaga erishish. Bu prinsip budjet xarajatlarini iloji boricha kamaytirish orqali maksimum natijaga erishishni maqsad qiladi. Bu holatda davlat mablag'lari oqilona sarflanib, yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati yaratiladi. Samarali budjet boshqaruvi bilan minimum xarajatda katta natija olish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish. Budjet mablag'lari faqat oldindan belgilangan va nazorat qilinadigan maqsadlar uchun sarflanishi lozim. Maqsadli foydalanish mablag'lar sarflanishida shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi, bu esa davlatning iqtisodiy siyosatini samarali amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi.

3. Budjet mablag'larining natijalariga asosan foydalanish. Bu prinsip budjet tashkilotlarining faoliyati natijalarini samarali nazorat qilish imkonini beradi. Moliya organlari budjet mablag'larining cheklanganligi va maqsadli sarflanishini ta'minlash orqali iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

4. Budjet mablag'larining qaytarilmasligi. Ushbu prinsipga ko'ra, budjet xarajatlari budjetga qaytarish kafolatisiz amalga oshiriladi. Bunda ajratilgan mablag'lar bevosita maqsadlar uchun sarflanadi va qaytarilish talab etilmaydi, bu esa davlat tomonidan amalga oshiriladigan loyihalarning barqaror moliyaviy ta'minotini kafolatlaydi.

Yuqoridagi prinsiplar asosida budjet xarajatlari har bir tarkibiy qism bo'yicha amalga oshirilishi va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi zarur. 2023-yilda davlat budjeti xarajatlarining tasdiqlangan rejaga nisbatan ko'p bo'lishi bir qator omillar, jumladan, ijtimoiy soha vakillarining mehnatiga haq to'lashning bosqichma-bosqich oshirilishi, yoqilg'i-energetika resurslari narxlari va tariflarining o'zgarishi, shuningdek, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish maqsadlariga qo'shimcha mablag'lar yo'naltirilishi bilan izohlanadi (1-jadval).

Ushbu prinsiplar asosida budjetning samaradorligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga erishish mumkin.

1-jadval. 2023-yilda davlat budjeti xarajatlari tarkibi[1], trln. so'm.

| Ko'rsatkichlar | | 2023-yil | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 1-chorak | 6 oylik | 9 oylik | yillik |
| **II. XARAJATLAR (MAQSADLI JAMG'ARMALARSIZ) – JAMI** | | **59 033,9** | **129 101,4** | **201 274,3** | **281 097,4** |
| **1.** | *Ijtimoiy xarajatlar* | *28 241,5* | *64 419,3* | *98 493,4* | *137 246,8* |
| **1.1** | *Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari* | *26 369,2* | *58 086,6* | *87 205,5* | *122 348,7* |
| | *shundan:* | | | | |
| **1.1.1** | *ta'lim* | *13 039,5* | *30 091,4* | *42 894,2* | *61 220,3* |
| **a.** | *maktabgacha ta'lim* | *2 544,8* | *5 222,5* | *8 346,9* | *11 723,0* |
| **б.** | *umumiy ta'lim* | *8 565,9* | *20 888,9* | *27 927,8* | *39 682,6* |
| **в.** | *kadrlar tayyorlash* | *1 928,8* | *3 979,9* | *6 619,6* | *9 814,7* |
| **1.1.2** | *sog'liqni saqlash* | *6 680,2* | *14 618,1* | *22 689,5* | *31 066,6* |
| **1.1.3** | *madaniyat va sport* | *951,4* | *2 279,5* | *3 784,9* | *5 330,2* |
| **1.1.4** | *fan* | *358,3* | *751,0* | *1 167,8* | *1 774,1* |
| **1.1.5** | *nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari* | *4 597,7* | *9 354,4* | *14 237,6* | *19 209,7* |
| **1.1.6** | *aholi bandligi darajasini oshirish* | *50,8* | *246,3* | *1 225,1* | *1 709,2* |
| **1.2.** | *Pensiya jamg'armasiga transfertlar* | *1 725,0* | *5 970,0* | *10 520,0* | *13 797,5* |
| **1.3.** | *Uy-joylar qurish dasturida qatnashayotgan banklar uchun kredit liniyalari, subsidiya va kompensatsiya to'lovlari* | *147,3* | *362,6* | *767,9* | *1 100,7* |
| **2.** | *Iqtisodiyot xarajatlari* | *11 318,3* | *20 095,6* | *30 068,1* | *42 926,9* |
| | *shundan:* | | | | |
| **2.1** | *suv xo'jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari* | *1 413,7* | *4 484,5* | *7 062,4* | *8 672,4* |
| **2.2** | *sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash* | *34,9* | *91,5* | *271,9* | *447,0* |
| **2.3** | *aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish* | *809,8* | *1 937,1* | *3 486,3* | *4 739,5* |
| **2.4** | *tabiatni muhofaza qilish* | *71,3* | *103,7* | *147,5* | *194,3* |
| **2.5** | *uy-joy kommunal ishlari* | *552,3* | *1 036,9* | *1 479,2* | *2 208,0* |
| **3.** | *Investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish* | *2 805,0* | *12 031,4* | *21 741,3* | *29 581,6* |
| **4.** | *Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari* | *3 012,8* | *6 488,0* | *9 924,4* | *14 618,4* |
| **5.** | *Sud organlarini saqlash xarajatlari* | *297,2* | *672,2* | *1 003,6* | *1 295,4* |
| **6.** | *O'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari* | *181,5* | *370,2* | *559,3* | *760,9* |
| **7.** | *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar budjetlarining zaxira jamg'armalari* | *301,3* | *708,0* | *1 157,0* | *1 720,4* |
| **8.** | *Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa inistitutlarini qo'llab-quvvatlash xarajatlari* | *63,3* | *140,6* | *232,4* | *326,8* |
| **9.** | *Davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish va qoplash xarajatlari* | *1 213,6* | *3 280,2* | *5 268,3* | *8 220,6* |
| **11.** | *Boshqa xarajatlar* | *11 599,4* | *20 895,9* | *32 826,6* | *44 399,4* |

Budjet mablag'laridan foydalanishning asosiy yo'nalishi, birinchi navbatda, ijtimoiy sohani rivojlantirish va ustuvor vazifalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir. Bu borada moliyaviy resurslardan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki moliyaviy resurslar maqsadli va oqilona ishlatilgandagina ijtimoiy soha rivoji va iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin.

Budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish alohida e'tibor talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, budjet xarajatlarini to'g'ri rejalashtirish va samarali boshqarish zarurati tug'iladi. Bu orqali milliy

1 2023-yil uchun budjetnoma va 2024-2025-yillarga budjet mo'ljallari. www.imv.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti ma'lumotlari.

iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga erishiladi. Buning uchun budjet xarajatlarining samarali ishlatilishini ta'minlash maqsadida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak.

- Hududlarning budjet xarajatlarini amalga oshirishda turli omillar hisobga olinishi lozim. Ular quyidagilardir:
- hududning tabiiy xususiyatlari;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi;
- milliy iqtisodiyot bilan bog'liqligi;
- davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi va boshqa shu kabi omillar.

Bu omillarning uyg'unligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ma'lum bosqichida har qanday mintaqada yagona budjet tizimini shakllantiradi. Mahalliy budjet xarajatlari mahalliy hokimiyat organlari tomonidan hududning ehtiyojlariga moslashtirilgan holda amalga oshiriladi, bu esa hududlar rivojlanishi uchun muhimdir. A. Premchand bu borada shunday fikr bildiradi: "Hududning xarajat tizimini yaxshilash uchun, avvalo, uni chuqur o'rganib, mavjud muammolarni tahlil qilishdan boshlash kerak. Xarajatlarni cheklamaslik hudud rivojlanmasligini bildiradi, lekin kam miqdordagi cheklash bilan yuqori o'sish va taraqqiyot imkoniyatlari yaratiladi"[6].

Bugungi kunda budjet xarajatlari samaradorligini oshirish maqsadida budjet xarajatlarini rejalashtirish sifatini yaxshilash uchun budjet tashkilotlarining elektron pasporti joriy etilgan. Ushbu elektron dastur orqali hududlar va budjet tashkilotlari tiplari bo'yicha barcha ma'lumotlar kiritilgan. Bu ma'lumotlar budjet tashkilotlari faoliyatini, moliyaviy resurslar ajratilishini asosli rejalashtirish va tahlil qilish uchun moliya organlariga zarur ma'lumotlar bazasini taqdim etadi.

Respublikamiz davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy xarajatlar salmog'ining o'sib borishi mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish bilan izohlanadi. Asosiy e'tibor jamiyat a'zolarining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga, xalq ta'limi, tibbiy xizmat kabi ijtimoiy sohalarni o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirishga qaratiladi. Davlat mamlakatda bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun zarur sharoitlarni yaratadi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadi va kapital sarflarning tarmoq va hududiy tuzilishini izga solib turadi. Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan davlatning iqtisodiyotga aralashuvi qisqaradi, bu esa davlat budjetining iqtisodiy xarajatlari miqdorini kamaytiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yaqin istiqboldagi islohotlarni amalga oshirishda quyidagi prinsipial masalalarga e'tibor qaratish lozim:

Budjetni rejalashtirish tizimi: Amaldagi tizim uzoq va yaqin istiqbolga mo'ljallangan budjet siyosatini aniqlash imkonini bermaydi. Bu holat iqtisodiy siyosatdagi davlat budjetining rolini mavhumlashtiradi. Shuning uchun o'rta muddatli rejalashtirish tizimini joriy etish zarur.

Budjet xarajatlarini baholash: Budjet xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini baholash mezonlari va mexanizmini ishlab chiqish lozim. Bu natijalarni baholash murakkab jarayon bo'lsa-da, budjet samaradorligini aniqlashda asosiy omil hisoblanadi.

Natijalarni boshqarish: Asosiy maqsad faqat natijalarni baholashga emas, balki ularni boshqarish tizimini takomillashtirishga yo'naltirilishi kerak.

Yuqoridagi chora-tadbirlar istiqbolda davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish va mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 2020-yil 25-yanvar. 3-son.
2. Аветисян И.А. Об эффективности государственного бюджета и бюджетных расходов //Проблемы развития территории. – 2005. – Т. 2. – №. 29.
3. Haydarov N.H. Budjet daromadlarini barqarorlashtirish va samarasiz xarajatlarni qisqartirish yo'llari. // O'zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg'or xorij tajribasidan foydalanish" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. –T.: TMI. "IQTISOD-MOLIYA", 2015. 43 b.
4. Radionov Y.D. The Role of Budget Expenditures in Regulating the Socio-Economic Development of the Country //Publishing House "Baltija Publishing". – 2020.
5. Nguyen H.H. The role of state budget expenditure on economic growth: empirical study in Vietnam //The Journal of Asian Finance, Economics and Business (JAFEB). – 2019. – Т. 6. – №. 3. – С. 81-89.
6. Premchand A. Controlling government spending: The ethos, ethics and economics of expenditure management. – Oxford University Press, USA, 2005.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.